

**MEDIA KONVERGENSIYA JARAYONIDA “GIBRID JANR”
TUSHUNCHASI**

Mamadaliyeva Zulfizar Yusufjon qizi

O'zDJTU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada media konvergensiya jarayoni, uning ommaviy axborot vositalari faoliyatiga ta'siri hamda ushbu jarayon natijasida shakllanayotgan gibrid janrlar mohiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, yangi media, multimedia mahsulotlari, konvergent tahririyat va universal jurnalist konsepsiyalarining zamonaviy media tizimidagi o'rni ilmiy jihatdan yoritiladi.

Kalit so'zlar: media konvergensiya, gibrid janr, yangi media, multimedia, krossmedia.

Kirish. Zamonaviy jamiyat ilmiy, texnik, huquqiy va boshqa turdagi axborotlarni yig'ish, qayta ishlash hamda tarqatish imkoniyatiga ega bo'lgan rivojlangan kommunikatsiya tizimlari asosida taraqqiy etmoqda. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi global media makonga integratsiyalashuvni tezlashtirib, ommaviy axborot vositalari faoliyatida yangi yondashuvlarni yuzaga keltirmoqda.

Bugungi kunda raqamlashtirish va multimedia jarayonlari media rivojlanishining asosiy omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Aynan shu jarayonlar natijasida “yangi media” tushunchasi shakllandi va u bilan bir qatorda multimedia mahsulotlari hamda gibrid janrlarning paydo bo'lishi kuzatilmogda. “Konvergensiya” atamasi lotin tilidagi convergo so'zidan kelib chiqqan bo'lib, “yaqinlashish”, “birlashish” ma'nolarini anglatadi. ¹⁸Media nazariyasida ushbu tushuncha turli kommunikatsiya vositalari, texnologiyalar va platformalarning o'zaro integratsiyalashuvi jarayonini ifodalaydi.

Media konvergensiyasi ommaviy axborot vositalari faoliyatida bir xil mazmundagi axborotni turli kommunikatsiya kanallari orqali auditoriyaga yetkazish imkonini beradi. Mazkur jarayon texnologik rivojlanish natijasida matn, audio, video va grafik ma'lumotlarning yagona raqamli muhitda jamlanishiga xizmat qilmoqda. Konvergensiya natijasida media industriyada tub transformatsiyalar yuz bermoqda. Endilikda an'anaviy OAV shakllari internet platformalari bilan integratsiyalashib, yangi kommunikativ muhitni hosil qilmoqda. Bu esa axborot mahsulotlarini yaratish va tarqatishning tamomila yangi tizimini shakllantirmoqda. Media konvergensiyaning eng muhim natijalaridan biri — gibrid janrlarning paydo bo'lishidir. Gibrid janrlar turli jurnalistik janrlar, formatlar hamda media texnologiyalarining

¹⁸ “Convergo” tushunchasi va media konvergensiya nazariyasiga oid manbalar.
<https://uz.wikipedia.org/wiki/Konvergensiya>.



uyg'unlashuvi natijasida yuzaga keladigan yangi kommunikativ shakllarni anglatadi.¹⁹ An'anaviy jurnalistikada axborot, tahliliy va badiiy-publitsistik janrlar qat'iy chegaralangan bo'lsa, zamonaviy media muhitida ushbu chegaralar tobora yo'qolib bormoqda. Natijada maqola, reportaj, intervyu, videokontent, infografika, podkast va ijtimoiy media elementlarini birlashtiruvchi murakkab media mahsulotlari shakllanmoqda.

Gibrid janrlarning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- multimedia vositalarining uyg'unligi;
- interaktivlik;
- krossplatformalilik;
- auditoriya bilan ikki tomonlama kommunikatsiya;
- kontentning moslashuvchanligi.²⁰

Bunday janrlar axborotni auditoriyaga yanada tezkor, qulay va ta'sirchan shaklda yetkazishga xizmat qiladi. Media konvergensiya sharoitida konvergent tahririyat modeli shakllanmoqda. Ushbu modelning asosiy vazifasi — onlayn, bosma, mobil va translyatsion formatlarni yagona axborot tizimida birlashtirishdan iborat. Konvergent tahririyat faoliyati transmedia tamoyiliga asoslanib, axborot almashinuvi, o'zaro havolalar va turli platformalarda kontent tarqatishni nazarda tutadi. Bu esa auditoriya ehtiyojlarini yanada samarali qondirish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, media muhitida "universal jurnalist" konsepsiyasi shakllanmoqda. Universal jurnalist matn yozish, videotasvirga olish, audio yozish, montaj qilish, blog yuritish va multimedia kontent yaratish ko'nikmalariga ega bo'lishi talab etiladi.²¹ Zamonaviy jurnalistning kasbiy mahorati nafaqat axborotni yig'ish, balki uni turli platformalar uchun mos formatda taqdim etish qobiliyati bilan ham belgilanadi.

Xulosa qilib aytganda, media konvergensiya zamonaviy media makonining ajralmas qismiga aylanib, axborot ishlab chiqarish va tarqatish tizimlarini tubdan o'zgartirmoqda. Ushbu jarayon natijasida gibrid janrlar shakllanib, jurnalistika faoliyatida yangi metod va yondashuvlar paydo bo'lmoqda. Konvergent tahririyat va universal jurnalist modeli esa zamonaviy media rivojlanishining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

¹⁹ «Специфика гибридных жанров в журналистике».

https://ru.wikipedia.org/wiki/Гибридный_жанр

²⁰ Речевые жанры в массмедиа / отв. ред. Н.С. Цветова. – СПб., 2014. – Б. 36–40.

²¹ Рэндалл Д. Универсальный журналист. – М.: Международный центр журналистики, 1996.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “Convergo” tushunchasi va media konvergensiya nazariyasiga oid manbalar. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Konvergensiya>.
2. «Специфика гибридных жанров в журналистике». https://ru.wikipedia.org/wiki/Гибридный_жанр
3. Речевые жанры в массмедиа / отв. ред. Н.С. Цветова. – СПб., 2014. – Б. 36–40.
4. Рэндалл Д. Универсальный журналист. – М.: Международный центр журналистики, 1996.